ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDA SHAKL VA MAZMUN MASALASI

Raxmatullayeva Dilbar G‘iyos qizi

Oriental universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Isokulov Abdullo Oblokul o‘g‘li

Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatida shakl va mazmun uyg‘unligi masalasi nazariy va tahliliy jihatdan yoritiladi. XX asr oxiri - XXI asr boshlaridagi she’riy izlanishlar, erkin vazn, ramziylik va ichki ohangdorlikning mazmun ifodasidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Abdulla Oripovning «Ka’batulloh» she’ri misolida qofiya, radif va takrorning mazmun yaratishdagi vazifasi tahlil etiladi. Shakl mazmunning tashqi qobig‘i emas, balki uning mavjud bo‘lish usuli ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek she’riyati, shakl, mazmun, erkin vazn, aruz, barmoq, obrazlilik, radif, refren.

Аннотация. В статье рассматривается проблема соотношения формы и содержания в современной узбекской поэзии. Анализируются поэтические поиски конца XX - начала XXI века: свободный стих, символизм, внутренняя ритмика и их роль в выражении содержания. На примере стихотворения Абдуллы Орипова “Каъбатулло” исследуется смысловая функция рифмы, радифа и рефрена. Обосновывается, что форма является не внешней оболочкой содержания, а способом его существования.

Ключевые слова: узбекская поэзия, форма, содержание, свободный стих, аруз, бармак, образность, радиф, рефрен.

Abstract. This article examines the relationship between form and content in contemporary Uzbek poetry. It considers the poetic experiments of the late 20th and early 21st centuries, including free verse, symbolism and internal rhythm, and their role in expressing meaning. Using Abdulla Oripov’s poem “Ka’batulloh” as a case

study, the article analyses the semantic function of rhyme, radif and refrain. The article argues that form is not an outer shell of content but the very way in which content exists.

Keywords: Uzbek poetry, form, content, free verse, aruz, barmoq, imagery, radif, refrain.

KIRISH

Shakl va mazmun munosabati adabiyotshunoslikning eng qadimiy va hamon dolzarb masalalaridan biridir. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida bu masala yangicha mohiyat kasb etmoqda: bir tomondan, aruz va barmoq an’analari davom etmoqda, ikkinchi tomondan, erkin vazn, ohangdorlikning yangi ko‘rinishlari va ramziy tasvirga intilish kuchaymoqda. Natijada o‘quvchi va tanqidchi oldida quyidagi savol turadi: yangi shakl yangi mazmunni keltirib chiqaradimi yoki yangi mazmun o‘ziga mos shakl izlaydimi?

Maqolaning maqsadi zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi shakl va mazmun munosabatining asosiy yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat. Maqola oldiga quyidagi vazifalar qo‘yilgan:

mavzuning nazariy asoslarini yoritish;

shakliy izlanishlarning mazmunga ta’sirini ko‘rsatish;

shakl va mazmun uzviyligi buzilgan holatlarni tahlil qilish.

ASOSIY QISM

Adabiyotshunoslikda mazmun asarda aks etgan hayot, his-tuyg‘u va g‘oyaviy qarashlar yig‘indisi, shakl esa shu mazmunni ifodalovchi til, vazn, kompozitsiya va tasvir vositalari tizimi sifatida talqin etiladi [1; 5]. Biroq badiiy asarda ular bir-biridan ajralgan holda mavjud emas: shakl mazmunni “o‘rab turuvchi idish” emas, aksincha, mazmun faqat shakl orqali voqelanadi. She’riyatda bu bog‘liqlik yanada chuqurroq namoyon bo‘ladi: bir so‘zning o‘rni almashsa, ohang o‘zgaradi, ohang o‘zgarsa, ma’no ham o‘zgaradi.

Rus adabiyotshunosligida formal maktab, keyinchalik struktur-semiotik yondashuv (Yu. M. Lotman) hamda V. M. Jirmunskiyning she’r nazariyasiga oid

tadqiqotlari she’riy matnni murakkab tizim sifatida talqin qilib, ritm va qofiyaning ham ma’no yaratuvchi vosita ekanini asoslab berdi [9; 8]. O‘zbek adabiyotshunosligida ham shakl va mazmun masalasi I. Sulton, U. Normatov, O. Sharafiddinov, D. Quronov kabi olimlar tomonidan turli jihatlardan yoritilgan [7; 2; 6; 4]. O‘zbek she’riyatida shakl taraqqiyotini shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin:

aruz an’anasi - mumtoz she’riyatda vazn va mazmun o‘rtasidagi qat’iy mutanosiblik;

barmoq vazni ustuvorligi - XX asrda xalq og‘zaki ijodiga yaqinlik, ravonlik va ommaboplik;

erkin vazn va yangicha shakllar - XX asr ikkinchi yarmidan boshlab kuchaygan, shaxs ichki dunyosini bevosita ifodalashga intilish.

Erkin vazn tarafdorlari uchun asosiy dalil – his-tuyg‘uni qolipga solmasdan, tabiiy nafas va fikr oqimiga mos holda ifodalash imkoniyatidir. Shu yo‘nalishdagi izlanishlar Shavkat Rahmon, Rauf Parfi, Muhammad Yusuf ijodida alohida e’tiborga loyiq; Abdulla Oripov va Erkin Vohidov ijodida esa an’anaviy shakllarning yangicha ruh bilan boyitilishi kuzatiladi. Bu shoirlarning har biri an’ana va yangilikni o‘ziga xos tarzda uyg‘unlashtirgan: ba’zilari mumtoz shakllarga yangi mazmun kiritgan, ba’zilari shaklning o‘zini yangilashga intilgan.

Zamonaviy she’riyatda mavzular doirasi kengaygan: shaxs yolg‘izligi, ijtimoiy o‘zgarishlar, ma’naviy qadriyatlar, zamon va makon falsafasi shular jumlasidandir. Bunday murakkab mazmun ko‘pincha ramziy obrazlar, ko‘p ma’noli tasvirlar va ixcham, ichki sukunatga boy shaklni talab qiladi. Shu sababli she’rning hajmi, misralarning uzunligi, tinish belgilarining vazifasi, hatto bo‘sh joy (pauza) ham mazmun tarkibiga aylanadi.

Zamonaviy she’riyatda ikki xil chekka holat kuzatiladi:

– mazmuni zaif, faqat yangicha ko‘rinish uchun qilingan tajribalar bo‘lib, bunda shakl o‘z-o‘ziga maqsadga aylanadi;

- g‘oya ochiq-oydin targ‘ib shaklida bayon qilinib, badiiylik pasayadi.

Har ikki holatda ham she’rning ta’sir kuchi susayadi. Haqiqiy she’r shakl va mazmunning bir-birini taqozo etishi natijasida tug‘iladi.

Shakl va mazmun birligi: Abdulla Oripovning «Ka’batulloh» she’ri misolida:

Hanuz biri ikki bo‘lmagan eldan,

Keldim, madad bergil, yo Ka’batulloh.

Bag‘ri xun, tolei kulmagan eldan,

Keldim, madad bergil, yo Ka’batulloh.

Abdulla Oripovning “Ka’batulloh” she’ridan keltirilgan bu to‘rtlikda [3; 10] shakl va mazmun uzviyligi yaqqol ko‘rinadi. To‘rtlik tuzilishi jihatidan o‘ziga xos: birinchi va uchinchi misralar “-magan” qofiyasi va “eldan” radifi asosida qurilgan, ikkinchi va to‘rtinchi misralar esa aynan takrorlanadi. Bu takror (refren) shunchaki bezak emas, balki mazmunning o‘zagidir. “Keldim, madad bergil, yo Ka’batulloh” misrasi to‘rtlikda ikki marta yangraydi va har gal turlicha jaranglaydi: birinchi marta u iltijoning boshlanishi, ikkinchi marta esa uzilib qolgan nolaning qaytarilishi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Mazmun jihatidan to‘rtlikda lirik qahramon shaxsiy dardini emas, butun bir xalqning taqdirini ifodalaydi. “Hanuz biri ikki bo‘lmagan el” va “tole’i kulmagan el” birikmalari xalqning ijtimoiy-tarixiy ahvolini aks ettiradi. Birinchi va uchinchi misralardagi “-magan” shakli (inkor shaklidagi sifatdosh) ikkala misrada ham yetishmovchilik, ro‘yobga chiqmagan orzu ma’nosini kuchaytiradi. “Eldan” radifi esa murojaat yakka shaxs nomidan emas, butun el nomidan ekanini bildiradi: fe’l birlik shaklida (“keldim”) qo‘llangan bo‘lsa-da, lirik qahramon el dardini ifodalab keladi. Misralar hajmining tengligi va ritmning o‘zgarmasligi iltijo ohangining bir tekis, ohista davom etishini ta’minlaydi, takrorlanuvchi misra esa umid va yolvorishni ifodalaydi. Shunday qilib, bu to‘rtlikda qofiya, radif va takror mazmunning tashqi bezagi emas, balki uning ichki mantig‘i sifatida xizmat qiladi. Aynan shu jihat shakl va mazmun birligining badiiy dalilidir.

Zamonaviy she’r ko‘pincha o‘quvchidan faol ishtirokni talab qiladi. Ochiq tugaydigan misralar, noaniq ramzlar, kutilmagan taqqoslar ma’noni o‘quvchi bilan

hamkorlikda yaratadi. Bu esa shakl va mazmun masalasiga yangi jihat qo‘shadi: she’r shakli o‘quvchining talqin erkinligini ham belgilaydi.

XULOSA

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy o‘zbek she’riyatida shakl va mazmun mutlaq qarama-qarshilikda emas, balki dialektik birlikda rivojlanmoqda. Shakliy yangilanishlar mazmun ehtiyojidan kelib chiqqandagina badiiy jihatdan oqlanadi. An’anaviy vaznlar ham, erkin vazn ham o‘z ichki imkoniyatlariga ega; muhimi - ularning shoirning ichki dunyosi va so‘zga mas’uliyatli munosabati bilan uyg‘unlashishidir. Kelgusida bu masalani aniq shoirlar ijodi misolida, ritmik va leksik tahlil asosida chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. N. Hotamov, B. Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi. 1979
2. U. Normatov. Ijod sehri. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1976.
3. A. Oripov. Haj daftari. Hikmat sadolari [Elektron resurs]. URL: https://api.ziyonet.uz/uploads/books/47828/572c80e5e98e6.pdf
4. D. Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr. 2018.
5. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent: Akademnashr. 2013.
6. O. Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2004.
7. I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: O‘qituvchi. 1986.
8. В. М. Жирмунский. Теория стиха. Ленинград: Советский писатель. 1975.
9. Ю. М. Лотман, Ю.М. Структура художественного текста. Москва: Искусство. 1970.